

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT ARXITEKTURA VA QURILISH
QO‘MITASINING
QARORI

**OMMAVIY TADBIRLAR O‘TKAZILADIGAN OBYEKTlarda YONG‘IN
XAVFSIZLIGIGA, TEZ TIBBIY YORDAM KO‘RSATISHGA, EVAKUATSIYAGA
VA HIMOYALASH BO‘YICHA MUHANDISLIK-TEXNIK VOSITALAR BILAN
JIHOZLASHGA QO‘YILADIGAN YAGONA TALABLAR HAMDA ULARGA
RIOYA ETILISHI USTIDAN NAZORATNI TA‘MINLASH TARTIBI
TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 23-iyunda ro‘yxatdan
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2596]**

Ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarda yong‘in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko‘rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo‘yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo‘yiladigan yagona talablarni belgilash hamda ularga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarda yong‘in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko‘rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo‘yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo‘yiladigan yagona talablar hamda ularga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Ichki ishlar vaziri A. AXMEDBAYEV

Toshkent sh.,
2014-yil 17-iyun,
22-son

Favqulodda vaziyatlar vaziri T. XUDAYBERGENOV

Toshkent sh.,
2014-yil 17-iyun,
7-son

Sog‘liqni saqlash vaziri A. ALIMOV

Toshkent sh.,
2014-yil 17-iyun,
11-son

Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi raisi B. ZOKIROV

Toshkent sh.,
2014-yil 17-iyun,
4-son

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining 2014-yil 17-iyundagi 22, 7, 11 va 4-

son qaroriga

ILOVA

Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko'rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan yagona talablar hamda ularga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash tartibi to'g'risidagi

NIZOM

Mazkur Nizom ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko'rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan yagona talablar hamda ularga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar ma'muriyati, tashkilotchilari va ishtirokchilari uchun majburiydir.

2. Mazkur Nizom talablari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablari bajarilishini istisno etmaydi.

2-bob. Yong'in xavfsizligiga qo'yiladigan talablar

3. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash Odamlar ommaviy bo'ladigan obyektlar uchun yong'in xavfsizligi **qoidalariga** (ro'yxat raqami 354, 1997-yil 8-iyul) muvofiq amalga oshirilishi kerak.

4. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar:

texnologik va muhandislik asbob-uskunalari, yong'inga qarshi himoya tizimi va vositalari, yong'inga qarshi suv ta'minoti manbalari (gidrantlar, rezervuarlar, suv havzalari, ichki yong'in o'chirish jo'mraklari), yong'in o'chirish texnikasi, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari bilan jihozlangan bo'lishi;

ommaviy tadbir o'tkaziladigan obyektlardagi yong'in o'chirish avtomatika vositalari, evakuatsiya qilish yo'llarini ko'rsatish va harakatlanish belgilari, tutun tortish va avariya yoritish tizimlari soz bo'lishi;

ommaviy tadbir o'tkaziladigan obyektlarda yong'inni o'chirishda foydalaniladigan zaxira suv manbalari, statsionar zinalar va yong'inni o'chirishning birlamchi vositalariga olib boruvchi yo'llar doimo bo'sh, soz va tozalangan holatda bo'lishi lozim.

3-bob. Tez tibbiy yordam ko'rsatishga qo'yiladigan talablar

5. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish tadbirning turi, ishtirokchilar soni, obyekt turi va davomiylik vaqtini inobatga olgan holda tashkillashtirilishi kerak.

6. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish joylari ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar ma'muriyati tomonidan ta'minlanishi zarur.

7. Tez tibbiy yordam sog'liqni saqlash tizimining maxsus tez tibbiy yordam xizmati tomonidan amalga oshirilishi lozim.

4-bob. Evakuatsiya va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan talablar

8. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda ishtirokchilarning obyekt hududi bo'ylab harakatini tashkil etish, tribunalarni to'ldirish va evakuatsiya qilish yo'llari, chipta kassalari, ovqatlanish punktlari, garderoblar, dam olish, tez tibbiy yordam ko'rsatish joylari, yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari va ularning joylashishi sxemalari mavjud bo'lishi kerak.

9. Muhandislik va qurilish konstruksiyalari, texnik tizimlarning ishonchligi va barqarorligi, ishtirokchilarni evakuatsiya qilish yo'llarining belgilangan normativlarga muvofiqligi ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar ma'muriyati tomonidan ta'minlanishi zarur.

10. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlardagi barcha muhandislik va yoritish tizimlarining uzluksiz ishlashi ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar ma'muriyati tomonidan ta'minlanadi.

11. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarning evakuatsiya qilish yo'llari va obyektlardan chiqish joylarida ogohlantiruvchi belgilar o'rnatilishi lozim.

12. Ommaviy tadbirlar ishtirokchilari favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari ko'rsatmasiga asosan harakat qilishlari zarur.

13. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar hududiga olib kiruvchi yo'llarda maxsus transport vositalarining erkin kirib-chiqishi uchun maxsus yo'laklar ajratilishi kerak.

14. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar va unga tutash hududlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar ma'muriyati tomonidan statsionar foto va videokuzatuv tizimlari o'rnatilishi mumkin.

5-bob. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko'rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan yagona talablarga rioya etilishi ustidan nazorat

15. Ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko'rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan yagona talablarga rioya etilishi ustidan nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzurida ommaviy tadbirlar o'tkazilishini nazorat qiluvchi komissiyalar tomonidan ta'minlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

16. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimliklari huzurida ommaviy tadbirlar o'tkazilishini nazorat qiluvchi komissiyalar ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko'rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan yagona talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

(16-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

6-bob. Yakuniy qoida

Oldingi tahrirga qarang.

17. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

(17-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 26-son, 319-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)